XALQ DEPUTATLARI MINGBULOQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 22 - fevral VI-44-24-6-81-K/22 Mingbuloq tumani hokimligi

Mingbuloq tumanida 2022 yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmonining 4-bandiga muvofiq, viloyat moliya bosh boshqarmasi va davlat soliq boshqarmasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib,O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hamda Davlat soliq qo‘mitasining 2021 yil 8 noyabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llash to‘g‘risida”gi 06/04-01-32/2248 va 19/10-68220-sonli qo‘shma xatida quyidagilar:

yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2022 yilda 1,07 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy budjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha tuman Moliya bo‘limi hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasi qo‘shma taklifi ma’qullansin.

3. Quyidagilar:

Mingbuloq tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik

shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq,

Mingbuloq tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2021 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

tuman xalq deputatlari Kengashlariga tuman xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman Moliya bo‘limi (Z.Jo`raboev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashev) 3 kun muddatda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsientlarni yetkazilishini ta’minlasin.

5. Tuman xalq deputatlari Kengashlari 1 hafta muddatda ushbu qarorning 1 va 2 ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, joriy yilning 18 fevralga qadar muhokamalar yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarni joylardagi soliq organlariga taqdim etsin.

6. Tuman xalq deputatlari Kengashlari ushbu qarorning 1 va 2 ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kelgusi yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqiqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

7. Mingbuloq tumani Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashev) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 1 yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida budjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli budjetning ijro yetilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil yetib borsinlar.

9. Tuman moliya bo‘limi (Z.Jo`raboev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashev) tuman “Mingbuloq” gazetasi (Q.Akbarov), bilan birgalikda ushbu qaror 1-, 2-ilovalariga muvofiq soliq stavkalari, soliq solish tartib-taomillari hamda boshqa masalaga oid ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

10. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022 yil 7 yanvardagi VI-42-1-6-81-K/22-sonli qarori o’z kuchini yo’qotgan deb xisoblansin.

11. Mazkur qaror tuman “Mingbuloq” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro yetish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Abdullaev zimmalariga yuklansin.

Кенгаш раиси **Н.Худойбердиев**

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman
Kengashining
2022 yil 22 fevraldagi
VI-44-24-6-81-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman Kengashi tomonidan tumanga 2022 yil uchun "Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasi"ga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so’mda

№	MFY nomi	Xalq deputatlari Namangan viloyati kengashi tomonidan tavsiya etilgan Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)
1	Birlashgan	24010.0	0,95	22809500
2	Oybek	24010.0	0,95	22809500
3	Qo`riqobod	24010.0	0,95	22809500
4	Mustaqillik	24010.0	0,95	22809500
5	Chordona	24010.0	0.85	20408500
6	To`psada	24010.0	0.85	20408500
7	Paxtakor	24010.0	0.85	20408500
8	Hayitobod	24010.0	0.85	20408500
9	Ingichka	24010.0	0.85	20408500
10	Tegirmonboshi	24010.0	0.85	20408500
11	Serharakat	24010.0	0.85	20408500
12	Bozorboshi	24010.0	0.85	20408500
13	Qo‘shqishloq	24010.0	0.87	20888700
14	Baland Gurtepa	24010.0	0.85	20408500
15	Damkul	24010.0	0.85	20408500
16	Madaniyat	24010.0	0.85	20408500
17	O`zgarish	24010.0	0.87	20888700
18	O`rta kishloq	24010.0	0.85	20408500
19	Mulkobod	24010.0	0.87	20888700
20	Madyarovul	24010.0	0.85	20408500
21	Kichik Jumashuy	24010.0	0.85	20408500
22	Qirqchek	24010.0	0.85	20408500
23	Momoxon	24010.0	0.85	20408500
24	Qolgandaryo	24010.0	0.85	20408500
25	Nayman	24010.0	0.85	20408500
26	Farovon	24010.0	0.85	20408500
27	Yoshlik	24010.0	0.85	20408500
28	Tollik	24010.0	0.85	20408500
29	Yangi Gulbog‘	24010.0	0.85	20408500
30	Qorashahar	24010.0	0.85	20408500
31	Beshserka	24010.0	0.85	20408500
32	Alami	24010.0	0.85	20408500
33	Qizilqum	24010.0	0.85	20408500
34	Qozoqovul	24010.0	0.85	20408500
35	Mehnatobod	24010.0	0.87	20888700
36	Uyirchi-damkul	24010.0	0.85	20408500

37	Qayrog`ochovul	24010.0	0.85	20408500
38	Yakkatol	24010.0	0.85	20408500
39	Qo`g`aliko`l	24010.0	0.85	20408500
40	Guliston	24010.0	0.85	20408500

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman
Kengashining
2022 yil 22 fevraldagi
VI-44-24-6-81-K/22-son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman Kengashi tomonidan tumanga Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so’mda

№	MFY lar nomi	Xalq deputatlari Namangan viloyati kengashi tomonidan tavsiya etilgan Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)
1	Birlashgan	216.0	1	216
2	Oybek	216.0	1	216
3	Qo`riqobod	216.0	1	216
4	Mustaqillik	216.0	1	216
5	Chordona	216.0	0.85	183.6
6	To`psada	216.0	0.85	183.6
7	Paxtakor	216.0	0.85	183.6
8	Hayitobod	216.0	0.85	183.6
9	Ingichka	216.0	0.85	183.6
10	Tegirmonboshi	216.0	0.85	183.6
11	Serharakat	216.0	0.85	183.6
12	Bozorboshi	216.0	1	216
13	Qo‘shqishloq	216.0	0.85	183.6
14	Baland Gurtepa	216.0	0.85	183.6
15	Damkul	216.0	0.85	183.6
16	Madaniyat	216.0	0.85	183.6
17	O`zgarish	216.0	1	216
18	O`rta qishloq	216.0	0.85	183.6
19	Mulkobod	216.0	1	216
20	Madyarovul	216.0	0.85	183.6
21	Kichik Jumashuy	216.0	0.85	183.6
22	Qirqchek	216.0	0.85	183.6
23	Momoxon	216.0	0.85	183.6
24	Qolgandaryo	216.0	0.85	183.6
25	Nayman	216.0	0.85	183.6
26	Farovon	216.0	0.85	183.6
27	Yoshlik	216.0	0.85	183.6
28	Tollik	216.0	0.85	183.6
29	Yangi Gulbog‘	216.0	0.85	183.6
30	Qorashahar	216.0	0.85	183.6
31	Beshserka	216.0	0.85	183.6
32	Alami	216.0	0.85	183.6
33	Qizilqum	216.0	0.85	183.6

34	Qozoqovul	216.0	0.85	183.6
35	Mehnatobod	216.0	1	216
36	Uyirchi-damkul	216.0	0.85	183.6
37	Qayrog`ochovul	216.0	0.85	183.6
38	Yakkatol	216.0	0.85	183.6
39	Qo`g`aliko`l	216.0	0.85	183.6
40	Guliston	216.0	0.85	183.6